

## VI –SINF 1- BO’LIM YUZASIDAN METODIK TAVSIYA TAKRORLASH

***Alimatova Dilafruz Davlatovna***

*Furqat tumani 15-maktab tarix-huquq fani o‘qituvchisi*

Paleolit: ilk	mil.avv. 1mln-100ming yil avval
o’rta paleolit	mil avv. 100-40-ming yil avval
so’nggi paleolit	mil.avv. 40-12-ming yil avval
mezolit davri	m.avv.12-7-mingyilliklar
neolit davri	m.avv. 6-4-mingyilliklar
eneolit davri	m.avv.4-3-mingyillik o’rtalari
bronza davri	m.avv.3-mingyillik o’rt-2-m.yillik

### “ JAMLANG” METODI

Bunda o’qituvchi katta vatman qogozga qora marker yordamida paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davriga oid ma’lumotlarni har xil joyga aralashtirib yozadi. O’quvchilar esa navbat bilan o’tilgan mavzularidagi bilimlariga tayanib, qora markerda faqat paleolit, qizil markerda mezolit, yashil markerda neolit, ko’k markerda eneolit, siyoh rang markerda bronza davriga tegishli ma’lumotlarni doiraga olib chiqadi

Paleolit	mezolit	neolit	eneolit	bronza
----------	---------	--------	---------	--------

O’q yoy	m.a 6-4-m.y	m.a.1mln-12-ming yillik
---------	-------------	-------------------------

To’quvchilik

kashf qilinishi

ko’p xonali uylar	suniy sug’orish
-------------------	-----------------

kulolchilik charxi	misdan yasalgan mehnat qurollari
--------------------	----------------------------------


Zamonbobo, Sopollitepa	Obisher, Machay	tosh davr
------------------------	-----------------	-----------

Jarqo’ton	itni qo’lga o’rgatish	ibodatxona
-----------	-----------------------	------------

Afrika, Osiyo, Yevropadan	ilk,o’rta, so’nggi
---------------------------	--------------------

topilgan qad odam suyaklari	m.a.4-3-m.y
-----------------------------	-------------

patriarxat	m.a.12-7- m.y
------------	---------------



### Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati

Mil.avv. IV asrda **Xorazm** Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi.

Ko'zaliqir: shaharsozlikning boshlanishi (m.aVII asr)

Qal'aliqir : mahalliy hukmdor qarorgohi ( m.a.V-IV asr)

Jonbosqal'a: Xorazmnинг qadimgi shahri (m.a. III-II asr)

Tuproqqal'a: qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Markaziy maydonida muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan. (milodiy II-III asr)

Oybo'yirqal'a: xum sirtiga chekilgan yozuv(m.a. V-IV asrlar)

Qo'yqirilganqal'a: mahalliy yozuvlari (m.a. III-II asrlar)

Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimidan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalanishgan.

### **QANG' davlati**

Mil. avv. III asrda Qang' davlatiga saklar asos solgan. Toshkent viloyatining Oqxo'rg'on tumanidagi Qang'xa shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti Qang'dez bo'lib, unga mil.avv. III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan. Mil.avv II asr oxirida Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari o'z nomidan tangalar zarb qildirganlar.

Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketdi.

### **DOVON** davlati

Mil. avv. III-asr---mil. II asr Farg'onada joylashgan.

Dovon davlati hududi hozirgi Toshkent vohasigacha borgan. Dovon davlati poytaxti Ershi bo'lган. Bu davlat o'zining "Samoviy ot"lari bilan mashhur bo'lган. Farg'ona shaharlari atrofidagi aholi yerni ishslash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Dovon davlati barham topdi.

### **XORAZM QANG', DOVON**

- A** 70ta shahar Bityan qadimgi yozuv m.a.III-m.III a
- B** Toshkent vohasi Ershi m.a.IV-m.IIIasr Tuproqqal'a
- C** Hukm o'z nomidan Oybo'yirqala qudratli mudofa devor
- D** tangalar zarb qil samoviy otlar Sho'rakashat
- E** Xitoy bn urushlar Kanka Parkana Jonbosqal'a
- F** Mahalliy taqvim Sirdaryo sohillari bo'y, BIY o'lining shim tar




### TAKRORLASH (Somoniylar, G'aznaviyilar, Qoraxoniylar)

Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi.U 888-yilda butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirdi.

**Somoniylar davlati** (865-999)-Mavarounnahr va Xurosondagi o’rta asr davlati. Somoniylar davlatining tashkil topishi Arab xalifaligining qulashi hamda Mavarounnahr va Xurosonni bosib olgan Somoniylarning davlat tepasiga chiqishi bilan bog’liq. Ravnaq topgan davrida Mavarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Sharqiy Eronni o’z ichiga olgan.

**G’aznaviylar davlati.** 962-963-yillarda G’azna viloyatini Alptegin noib va lashkar amiri sifatida boshqargan. U G’azna va Qobul viloyatlarini mustaqil idora etishga intilib, G’aznaviylar davlatiga asos solgan. Mazkur yosh turkiy davlatning poytaxti G’azna shahrida qaror topgan.

**Qoraxoniylar davlati**, Xoqoniya---Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yonbag’rida tashkil topgan davlat. Qoraxoniylar sulolasi boshqargan. Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chigil va yag’mo qabilalari yetakchi rol o’ynagan. Asoschisi---Abdulkarim Sotuk Bug’roxon (859-955)



Bu metoddan asosan takrorlash va quyidagi mavzularda ham foydalanishimiz mumkin:

Mavarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti (7-sinf o’z tarixi)

Slavyanlar va ularda davlatlarning tashkil topishi (7-sinf jahon tarixi)

Koreya (7-sinf jahon tarixi)

Amerika o’rta asrlarda (7-jahon tarixi)

- 1918-1939-yillarda Afrika mamlakatlari (10-sinf jahon)
- 1946-1991-yillarda Buyuk Britaniya va Fransiya (10-s jahon)
- 1946-1991-yillarda Turkiya, Eron,Afg'oniston (10 jahon)
- 1946-1991-y Lotin Amerikasi mamlakatlari (10 jahon)
- 1946-1991-yillarda Afrika mamlakatlari (10 jahon)